

KUFA MAKTABINING TARAQQIYOT YO‘LI

Giyosova Munisa

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom institute talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Kufa shahrining nomlanishi, tarixiy ahamiyati va islom ilmiy markazlaridan biriga aylanish jarayoni tahlil qilingan. Maqolada Kufaning tashkil topishidan boshlab, uning harbiy va ilmiy markaz sifatidagi roli, sahobalar va yirik muhaddislarning bu shaharga bo‘lgan alohida e’tibori, shuningdek, kufalik olimlarning nahv ilmi va boshqa islomiy fanlardagi hissasi yoritilgan. Kufa nahviy maktabining shakllanishi, Basra maktabi bilan o‘zaro raqobati va kufaliklarning til qoidalarini ishlab chiqishda tutgan o‘rni haqida batafsil ma’lumot berilgan. Xususan, Abu Ja’far ar-Ruasiyning ilmiy faoliyati, al-Kisoiy va al-Farro kabi buyuk olimlarning kufalik nahv maktabi rivojiga qo‘shgan hissalar alohida o‘rganilgan. Maqola Kufa maktabining fiqh, qiroat va nahv ilmidagi yutuqlarini ochib berib, bu maktabning mustaqil yo‘nalish sifatida shakllanishini asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: Kufa, Kufa maktabi, nahv ilmi, Abu Ja’far ar-Ruasi, al-Kisoiy, al-Farro, fiqh, qiroat, Basra va Kufa raqobati, ilmiy maktablar, Islom tarixi.

Kufa so‘zining ko‘p ma’nolari bor. Ayrimlar bu so‘zni “to‘plangan qum” deb ta’riflaganlar, boshqalar esa “qizil qum” yoki har qanday turdagi qum deb tushuntirganlar. Shuningdek, u كوفانا so‘zidan olinganligini ham aytishadi, bu “dumaloq shaklidagi qum” degan ma’noni anglatadi. Yana bir taxminga ko‘ra, Kufa deb nomlandi, chunki u qum va tuproq aralashmasi bo‘lgan hududda joylashganligi uchun. Shuningdek, كوف fe’lidan olingan bo‘lib, bu “to‘planmoq” ma’nosini anglatadi, ya’ni odamlarning u yerga to‘planishi sababli shu nom berilgan.¹

Kufaning tarixiga keladigan bo‘lsak, Kufa xalifa Umar ibn Xattob roziyallohu anhu davrida fath qilingan va shundan keyin Xuroson, Fors va Hindistonni fath qilish markaziga aylangan. Uni barpo etishdan asosiy maqsad, uzoq safar va janglardan charchagan Islom qo‘shini uchun dam olish joyi yaratish edi. Xalifa Umar ibn Xattob roziyallohu anhu Sa’d ibn Abu Vaqqos roziyallohu anhuga Kufani musulmonlar uchun hijrat va harbiy qarorgoh sifatida qurishni buyurgan. Kufaning joylashuvi tasodifan tanlanmagan, balki uning geografik jihati va harbiy afzalliklari puxta o‘rganilgan. U Madina shahridan uzoq bo‘lishiga qaramay, hijrat joyi va jihod markazi sifatida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, hijriy 17-yilda Umar ibn Xattob roziyallohu anhu davrida eng mashhur va muhim shaharlardan biriga aylandi.²

¹ ينظر: معجم البلدان، شهاب الدين ابي عبد الله ياقوت ابن عبدالله الحموي (ت ٦٢٦) دار البيروت للطباعة والنشر، بيروت: ٤٩٠/٤، فتوح البلدان، أبو جعفر احمد بن يحيى بن جابر البلاذري (ت ٥٢٩هـ)، مطبعة لجنة البيان العربي

² معجم البلدان: ٤٩١/٤.

Ba’zi manbalarga ko’ra, Kufa Basra shahridan ikki yil keyin, ya’ni hijriy 13-yilda barpo etilgan. Boshqalar esa hijriy 14-yilda tashkil etilgan deb hisoblashadi, ammo eng ishonchli va ko’pchilik tomonidan qabul qilingan fikrga ko’ra, Kufa hijriy 17-yilda tashkil etilgan.³

Kufadagi ilmiy maktablar haqida gap ketganda, Sa’d ibn Abu Vaqqos roziyallohu anhu Kufada masjid qurish uchun joy tanlagan va shahar markazidan masjid barpo etgan. Ushbu masjiddan yo’llar va ko’chalar tarmoqlanib ketgan. Uning oxirida esa Sa’d ibn Abu Vaqqos roziyallohu anhu uyi ham qurilgan, shuningdek, Baytul mol ham tashkil etilgan.⁴ Alloh bu masjidni sharaflantirdi, buning sababi u yerda Umar ibn Xattob roziyallohu anhu davrlarida ko’plab sahobalar yashagan. Ulardan eng mashhurlaridan biri Abdulloh ibn Mas’ud roziyallohu anhu bo’lib, u Kufadagi ilmiy maktabning asoschisi va u yerda ko’plab sahobalarga ta’lim bergan.⁵

Vaqt o’tishi bilan Kufa ilm markaziga va olimlar bilan gavjum shaharga aylandi. U ilm jihatidan Madina va Basra bilan raqobatlasha boshladi va fiqh hamda nahv ilmi bo’yicha mashhur bo’ldi.

Hijriy 36-yilda, Jamal jangidan so’ng, Ali roziyallohu anhu Kufaga kelib, u yerda yashashni boshladi. Uning poytaxtga aylanishi bilan Kufa to’rt yil davomida Islom xalifaligining markazi bo’ldi.

Ilm talab qilgan kishilar uchun Kufa zaruriy ziyorat joyiga aylandi. Bu shaharga Imom Shofe’iy, Imom Buxoriy, Imom Abu Dovud, Imom Termiziy, Imom Nasoiy, Imom Muslim va Imom ibn Moja kabi ulug’ muhaddis va faqihlar tashrif buyurishdi. Shahar islomiy ilm-fan markazi va diniy ilmlarni rivojlantirish maydoniga aylandi.⁶

Ibrohim as-Samaroiyning Kufaga doir fikrlari: Basra ham Kufa ham musulmonlar tomonidan asos solingan qadimiy shaharlar bo’lib, islom tarixida muhim o’rin egallagan. Ular ikkinchi va uchinchi hijriy asrlarda siyosatda ham katta ta’sirga ega bo’lishgan. Kufa alaviy yo’nalishiga moyil bo’lsa, Basra usmoniy yo’nalishga yaqin bo’lgan. Ikkala shahar aholisi bir-biri bilan aloqada bo’lgan, ba’zi basraliklar Kufada yashagan, ba’zi kufaliklar esa Basraga ko’chib o’tgan.⁷

Kufa ham Basra kabi ilm markazi edi. Basraliklarning ilmga, ayniqsa tilshunoslik fanlariga erta e’tibor berganligi ma’lum, chunki nahv ilmi birinchi bo’lib Basrada paydo bo’ldi. Kufada nahv ilmining boshlanishi Abu Ja’far ar-Ruasiyning faoliyati bilan bog’liq.

³. فتوح البلدان: ٢٤٧/٢.

⁴. تاريخ الرسل والملوك، بو جعفر محمد بن جرير الطبري (ت٣١٠هـ) طبع في المطبعة الحسينية، القاهرة، ط١٩٤٩: ١٣٤/٣.

⁵. فتوح البلدان: ٣٥٤/٣.

⁶ سير اعلام النبلاء، شمس الدين محمد ابن احمد ابن عثمان الذهبي (ت٧٤٨هـ)، تحقيق مأمون الضأغري، مؤسسة الرسالة،

ط٥٩/١:٦٦.

⁷ تاريخ ابن خلدون، عبد الرحمن بن محمد الاشبيلي التونسي (ت٨٠٨هـ) من منشورات مؤسسة الاعلمي

Shavqiy Zoyfning fikricha, Kufa Basraga arab yozuvining nuqtalarini va e’rob belgilari tizimini ishlab chiqish ishini topshirgan. Basralik Abu Is’hoq nahvda qoidalar va qiyos usullarini shakllantirgan bo’lsa, kufaliklar o’sha davrda fiqh, aqoid, fatvo, qiroat va hadis ilmi bilan band edi. Shu sababli Kufa fiqh bo’yicha Abu Hanifa mazhabining vatani bo’ldi, shuningdek, qiroat bo’yicha yeti mashhur qori orasidan uch nafari kufalik bo’lgan. Ular Osim, Hamza va Al-Kisoiy bo’lganlar.

Ko’pgina tarjima kitoblarida kufalik nahv maktabining asoschilari Abu Ja’far ar-Ruasiy va Muoz al-Harro’ sifatida tilga olinadi.

Ammo, haqiqiy kufa nahv maktabi al-Kisoiy va uning shogirdi al-Farro bilan boshlanadi, ular ushbu maktabning asosiy nazariy qoidalarini ishlab chiqib, uni basraliklardan o’rgangan bo’lsa ham, ularga to’liq ergashmasdan, qoidalarni o’zgartirib, tafsir va ta’vil orqali mustaqil yo’nalish yaratishga harakat qilishgan. Bu esa ularning o’ziga xos va mustaqil nahv maktabini tashkil etishiga sabab bo’ldi.

Dastlab, kufaliklar nahv ilmini o’rganishdan ko’ra she’r rivoyat qilish, tarixiy voqealar va qiziqarli hikoyalarni bayon etish bilan ko’proq shug’ullanishgan. Biroq, Basra maktabi nahv ilmi bilan yolg’iz shug’ullanganidan bir asr o’tgach, kufaliklar ham bu sohaga jiddiy kirishib, qoidalarni to’liq shakllantirishga harakat qilishgan. Ushbu jarayonda Basra va Kufa maktablari o’rtasida qattiq raqobat kechgan. Nihoyat, taxminan yana bir asr o’tgach, nahv ilmi to’liq shakllanib, uning asosiy tamoyillari to’liq aniqlangan va undan keyingi ijtihod deyarli to’xtagan.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, kufaliklar o’z nahv maktabini yaratishda Basraliklardan ilhomlangan, lekin ularni to’liq nusxalamagan. Ular ba’zi yangi lahjalarga asoslangan va tilshunoslik qoidalarida ko’proq erkinlikni afzal ko’rganlar. Ammo ular ham tilshunoslikda haddan tashqari bo’shashishdan qochishgan, ba’zi lahjalarni rad etishgan va nahviy qoidalarni yaratishda o’z yondashuvlariga ega bo’lishga harakat qilishgan.

Foydalangan manba va adabiyotlar:

1. معجم البلدان، شهاب الدين ابي عبد الله ياقوت ابن عبد الله الحموي (ت ٦٢٦) دار البيروت للطباعة والنشر، بيروت: ٤/٤٩٠، فتوح البلدان، أبو جعفر احمد بن يحيى بن جابر البلاذري (ت ٢٧٩هـ)، مطبعة لجنة اللبيان العربي
2. تاريخ الرسل والملوك، بو جعفر محمد بن جرير الطبري (ت ٣١٠هـ) طبع في المطبعة الحسينية، القاهرة، ط ١٩٤٩، ١
3. سير اعلام النبلاء، شمس الدين محمد ابن احمد ابن عثمان الذهبي (ت ٧٤٨هـ)، تحقيق مأمون الضأعرجي مؤسسة الرسالة
4. تاريخ ابن خلدون، عبد الرحمن بن محمد الاشبيلي التونسي (ت ٨٠٨هـ) من منشورات مؤسسة الاعلمي